

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN CHAQIRUVGA
QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANIDAN MALAKA TEST
SINOV I TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining o‘rta maxsus va kasbiy ta‘lim tashkilotlarida pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentiga muvofiq ishlab chiqildi. Hujjat Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarining kasbiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash uchun qo‘llaniladigan test sinovlarining mazmuni, tuzilmasi va baholash mezonlarini belgilaydi.

Spetsifikatsiya test topshiriqlarining mazmuni, tuzilmasi, baholash mezonlari, test topshiriqlarining shakli, kognitiv darajalari hamda baholash jarayonini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

Mazkur hujjat test topshiriqlarini ishlab chiqishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi hamda baholash jarayonining shaffofligi, adolatliligi va ilmiy asoslanganligini ta‘minlashga qaratilgan.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarining fan bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy faoliyat ko‘nikmalarini tashkil etish kompetensiyasi, Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini o‘qitish metodikasi bo‘yicha bilimlari, pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashdan iborat. Baholash natijalari pedagog kadrlarni malaka toifa sertifikatlarini berish jarayonida qaror qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori.**

III. Baholash qamrovi

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik (CHQBT) fani o‘qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan jami 40 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va umumiy test topshirig‘ini bajarish uchun ajratilgan vaqt 80 daqiqa etib belgilanadi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni*

talab qiladigan (Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari (Y3) foydalaniladi. Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan.

IV. Test tuzilmasi

Test sinovi Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanining asosiy mazmun yo‘nalishlarini qamrab oladi. Xususan, test topshiriqlari harbiy xizmat asoslari, harbiy nizomlar, otish tayyorgarligi, taktik tayyorgarlik, fuqaro muhofazasi, tibbiy bilim asoslari, Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini o‘qitish metodikasi va pedagogik mahoratga oid bilim hamda ko‘nikmalarni baholashga qaratilgan. Test topshiriqlarining mazmuni umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlari, amaldagi o‘quv dasturlari hamda fan bo‘yicha metodik talablar asosida shakllantiriladi.

Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1.Harbiy xizmat asoslari		
1.1. Harbiy xizmat asoslari	<ul style="list-style-type: none"> - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan huquq va majburiyatlarni bilish, moddalarni farqlash hamda hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, tahlil qilish; - O‘zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasini mazmun-mohiyatini bilish, huquq va majburiyatlarni farqlash hamda ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, tahlil qilish; - “Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonun va “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida” gi qonunlarning mazmun-mohiyatini bilish, berilgan vaziyatda qo‘llash, taqqoslash, tahlil qilish; - O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilishining maqsadi va ahamiyatini bilish, uning vazifalarini tahlil qilish; 	8 ta

2.Umumharbiy nizomlar		
2.1. Harbiy Nizomlar	<ul style="list-style-type: none"> - O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat nizomining mazmun mohiyatini bilish, farqlash hamda hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, ularni tahlil qilish; - O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining Intizomiy nizomining mazmun-mohiyatini bilish, farqlash, taqqoslash hamda hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, ularni tahlil qilish; - O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmatlari nizomining mazmun mohiyatini bilish, farqlash, taqqoslash hamda hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, ularni tahlil qilish; - O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf nizomining mazmun-mohiyatini bilish, farqlash, taqqoslash hamda hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, ularni tahlil qilish; 	8 ta
3. Otish tayyorgarligi		
3.1. O‘zbekiston Respublikasining “Qurol to‘g‘risida”gi qonuni	- O‘zbekiston Respublikasining “Qurol to‘g‘risida”gi qonuni mazmun-mohiyatini bilish, berilgan vaziyatda qo‘llash va taqqoslash, ularni tahlil qilish;	9 ta
3.2. Jangovar vositalar va qurollar	<ul style="list-style-type: none"> - jangovar vositalar, o‘qotar va pnevmatik qurollarning vazifasi, tuzilishi, ishlash prinsipi va jangovar xususiyatlarini, otish hodisasi va uning davrlarini bilish, farqlash, berilgan vaziyatda qo‘llash va taqqoslash, ularni tahlil qilish; - Kalashnikov avtomatining vazifasi, konstruktiv va ballistik ko‘rsatkichlari, umumiy tuzilishi, farqlash, berilgan vaziyatda qo‘llash va taqqoslash, ularni tahlil qilish 	
4. Taktik tayyorgarlik		

<p>4.1. Zamonaviy umumqo‘shin jangi</p>	<p>- harbiy ish asoslarini, zamonaviy umumqo‘shin jangi, askarning jangdagi majburiyatlari va harakatlarini bilish, taqqoslash, tahlil qilish;</p>	<p>1 ta</p>
<p>4.2. Harbiy topologiya</p>	<p>- gorizont tomonlarini, masofani, burchakni aniqlash, xaritani tushunish, qo‘llash, tahlil qilish; - azimut bo‘yicha harakatlanishni bilish, notanish vaziyatda qo‘llash, xaritasiz oriyentir olish, berilgan vaziyatni tahlil qilish; - topografik xaritani tahlil qilish, joy relyefini baholash;</p>	<p>2 ta</p>
<p>4.3. Jangovar guruh xususiyatlari. Jangovar texnika va vositalarning taktik-texnik tavsifi</p>	<p>- jangovar guruh tarkibi, qurollanishi va jangovar imkoniyatlarini bilish, xususiyatlarni farqlash, berilgan vaziyatda qo‘llash va taqqoslash, ularni tahlil qilish; - jangovar texnika va vositalarning taktik-texnik tavsifi, imkoniyatlarini bilish, xususiyatlarni farqlash, berilgan vaziyatda qo‘llash va taqqoslash, tahlil qilish;</p>	<p>2 ta</p>
<p>5. Fuqaro muhofazasi</p>		
<p>5.1. Favqulodda vaziyatlar</p>	<p>- favqulodda vaziyatlar va ularning turlarini, turli favqulodda vaziyatlarda xabar berish va harakatlanish tartibi bilish, farqlash, taqqoslash, berilgan vaziyatni tahlil qilish va xulosalash; - favqulodda vaziyatlarda foydalaniladigan vositalarni bilish, farqlash, qo‘llash, taqqoslash, ularni tahlil qilish va xulosalash;</p>	<p>2 ta</p>
<p>5.2. Ommaviy qirg‘in qurollari</p>	<p>- yadroviy qurol turlarini va ulardan himoyalash usullarini bilish, farqlash, taqqoslash, ularni tahlil qilish va xulosalash; - kimyoviy va bakteriologik (biologik) qurol turlarini va ulardan foydalanish usullarini bilish, farqlash, taqqoslash, ularni tahlil qilish;</p>	<p>3 ta</p>
<p>6. Tibbiy bilim asoslari</p>		
<p>6.1. Birinchi yordam ko‘rsatish</p>	<p>- turli vaziyatlarda jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish tartibini bilish, qo‘llash, berilgan holatni tahlil qilish va xulosalash</p>	<p>1 ta</p>

<p>6.2. Jarohat turlari, yuqumli kasalliklar</p>	<ul style="list-style-type: none"> - jarohatlarning turlarini bilish, ularni darajasiga ko‘ra farqlash, taqqoslash, berilgan vaziyatda ularni tahlil qilish va xulosalash; - yuqumli kasalliklarni va ularni kelib chiqish sabablarini hamda oldini olish choralarini bilish, ularni darajasiga ko‘ra farqlash, taqqoslash, berilgan vaziyatda ularni tahlil qilish va xulosalash; - qon ketishi turlarini, uning belgilarini, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishni bilish, ularni darajasiga ko‘ra farqlash, taqqoslash, berilgan vaziyatda ularni tahlil qilish; - suyak sinishi to‘g‘risida tushuncha va uning belgilarini, davolash choralarini bilish, sinish belgilarini farqlash, taqqoslash, ularni tahlil qilish va xulosalash; 	<p>4 ta</p>
<p>Jami</p>		<p>40 ta</p>

Kognitiv ko‘nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir asosiy dalillar, qonunlar, ta’riflar, formula va hodisalarni yoddan bilish, tanish, esga olish.	17
2	Qo‘llash	Dalil va qonunlarni tanish vaziyatlarda qo‘llash, hisob-kitob qilish, grafik/diagramma tahlil qilish.	20
3	Mulohaza qilish	Notanish vaziyatda qo‘llash, tahlil–sintez, sabab–oqibat bog‘lanish, izohlash, baholash.	3

V. Baholash mezon

Test topshiruvchining umumiy natijasi har bir test topshirig‘iga berilgan ballar yig‘indisi asosida aniqlanadi. Har bir to‘g‘ri javob uchun **2 ball**, noto‘g‘ri javob uchun **0 ball** beriladi. Test sinovining eng yuqori natijasi 80 ballni tashkil etadi.

VI. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VII. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. U.Mamadaliyev va boshq., Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik. 10-sinf uchun darslik. Toshkent, 2025-yil.
2. U.Mamadaliyev va boshq., Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik 11-sinf uchun darslik. Toshkent, 2025-yil.
3. Umumiy taktika. (3-qism guruh taktikasi) 2010-yil
4. Quruqlikdagi qo'shinlarning jangovar nizomi. (3-qism guruh taktikasi) 2019-yil
5. Otish tayyorgarligi. B.B.Gofurov va boshq. Toshkent, 2004-yil.
6. Yosh askarlar uchun boshlang'ich umumqo'shin harbiy tayyorgarlik. B.B.Gofurov. Toshkent, 2004-yil.

VIII. Normativ-huquqiy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. 2024-yil.
4. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi "Mudofaa Doktrinasini to'g'risida" 458-son Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-iyuldagi "Qurol to'g'risida"gi O'RQ-550-son Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 13-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to'g'risida"gi O'RQ-868-son Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi 436-II-son Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 3-iyuldagi "Mudofaa to'g'risida"gi 641-XII-son Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 25-aprelda "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to'g'risida"gi 478-II-son Qonuni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2025-yil 14-fevraldagi PF-23-son Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-son Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi PQ-4447-son Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 8-noyabrdagi “Ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 591-son Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-393-son Qarori

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Sinovga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.